

## PATENT TIZIMINING O'ZIGA XOS JIHATLARI: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI

**Abduraximov Shoxrux Shuxratjon o'g'li**

Toshkent davlat yuridik universiteti

70420108-Biznes huquqi magistranti

E-mail: [sh.sh.abduraximov@gmail.com](mailto:sh.sh.abduraximov@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Ushbu tadqiqot ishi turli mamlakatlarning milliy va xorijiy tajribalarini tahlil qilish orqali patent tizimining o'ziga xos jihatlari o'rganadi. Tadqiqotda xorijiy davlatlarning patent tizimidagi o'xshashliklar va farqlar, ularning yutuqlari va kamchiliklari, shuningdek, chet el qonunchiligini sinchkovlik bilan o'rganish orqali O'zbekiston va boshqa davlatlarning patent tizimlari o'rtasidagi o'xshashliklarga e'tibor qaratiladi. Ushbu umumiy xususiyatlarga huquqiy asoslar, patentni ro'yxatdan o'tkazish tartibi, patentga layoqatlilik mezonlari va ijro etish mexanizmlari kiradi. Xorijiy patent tizimlarida o'zbek modelidan farq qilishi mumkin bo'lgan xususiyatlar va innovatsiyalar xorijiy tizimlarning yutuqlarini o'rganadi, masalan, patent ekspertizasi samaradorligini oshirish, patentlar sifatini oshirish, innovatsiyalar va texnologik rivojlanishni rag'batlantirish.*

***Kalit so'zlar:** patent tizimi, sanoat mulki, ixtiro, foydali model, sanoat namunasi, patent ekspertizasi.*

## ОСОБЕННОСТИ ПАТЕНТНОЙ СИСТЕМЫ: СРАВНИТЕЛЬНО- ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ ОТЕЧЕСТВЕННОГО И ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА

### АННОТАЦИЯ

*В данной исследовательской работе исследуются специфические аспекты патентной системы путем анализа Национального и зарубежного опыта различных стран. В исследовании с акцентом на перспективу Узбекистана будет уделено внимание сходствам и различиям в патентной системе зарубежных государств, их достижениям и недостаткам, а также сходствам между патентными системами Узбекистана и других государств путем тщательного изучения зарубежного законодательства. Эти общие характеристики включают правовые основы, порядок регистрации патента, критерии патентоспособности и механизмы обеспечения соблюдения.*

*Особенности и инновации, которые могут отличаться от узбекской модели в зарубежных патентных системах, исследуют достижения зарубежных систем, таких как повышение эффективности патентной экспертизы, повышение качества патентов и стимулирование инноваций и технологического развития.*

**Ключевые слова:** патентная система, Промышленная собственность, изобретение, полезная модель, промышленный образец, патентная экспертиза.

## FEATURES OF THE PATENT SYSTEM: COMPARATIVE LEGAL ANALYSIS OF DOMESTIC AND FOREIGN EXPERIENCE

### ANNOTATION

*This research paper examines the specific aspects of the patent system by analyzing the national and foreign experience of various countries. The study with an emphasis on the perspective of Uzbekistan will pay attention to the similarities and differences in the patent system of foreign countries, their achievements and shortcomings, as well as similarities between the patent systems of Uzbekistan and other states through a thorough study of foreign legislation. These common characteristics include the legal framework, patent registration procedure, patentability criteria, and enforcement mechanisms. Features and innovations that may differ from the Uzbek model in foreign patent systems explore the achievements of foreign systems, such as improving the efficiency of patent examination, improving the quality of patents and stimulating innovation and technological development.*

**Keywords:** patent system, industrial property, invention, utility model, industrial design, patent examination

### KIRISH

Intellectual mulk va sanoat mulki to'g'risidagi qonunlar innovatsiyalarni himoya qilish va texnologik taraqqiyotni rag'batlantirish orqali ko'plab mamlakatlarning iqtisodiy o'sishida muhim rol o'ynaydi. Bugungi kunda jahon savdosida milliy mahsulotlar eksportining ahamiyati oshib bormoqda [2]. Intellectual mulkni himoya qilish bo'yicha kuchli qonunlarga ega bo'lgan va intellectual mulk va sanoat mulklari sanoat va YaIMda muhim rol o'ynaydigan ba'zi mamlakatlar qatorida AQSh, Yaponiya, Xitoy va Yevropa ittifoqi davlatlarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Masalan, birgina AQSHning o'zida intellectual mulk obyektlaridan kelgan foydaning o'zi 2019-yilgi yalpi ichki mahsulotda 7,8 trillion dollarni tashkil qilgan [10]. Bu davrda O'zbekistonning umumiy yalpi ichki mahsulot hajmi dollarga hisoblanganda

57,9 mlrd. dollardan iborat bo‘lgan [11]. Intellektual mulk obyektlarining YaIM dagi ulushi bo‘yicha O‘zbekistonda alohida hisob yuritilmaydi. Iqtisodiy ko‘rsatkichlar jihatdan bunday katta farq turli sabablar bilan bog‘liq. Biz ushbu maqolda buning huquqiy tomonlarini ko‘rib chiqamiz hamda intellectual mulk, xususan, patent tizimida xorijiy davlatlarda qanday imkoniyatlar mavjudligini, uni milliy patent tizimiga kiritish istiqbollari haqida fikr yuritamiz.

### MUHOKAMA

Turli davlatlarning milliy qonunchiligida farqlar bo‘lishiga qaramay, sanoat mulki obyektlarini (ixtiro, foyali model, sanoat namunasi) patentlashda ularga qo‘yilgan talablar deyarli farq qilmaydi. Bunga 1883-yilda qabul qilingan “Sanoat mulkini muhofaza qilish bo‘yicha Parij konvensiyasi” (keyingi o‘rinlarda – Parij konvensiyasi) katta ta’sir ko‘rsatgan. Quyida turli xorijiy davlatlarda sanoat mulki obyektlarini patentlashdagi (1) patentga layoqatlilik shartlari, (2) protsessual farqlar, (3) berilgan huquqlarga oid farqlar va (4) siyosiy va madaniy farqlarni tahlil qilamiz.

Avvalo, turli xorijiy davlatlarda patent tizimining vujudga kelishiga nazar soladigan bo‘lsak, paatentlash tizimi 1624-yilda Angliyada qirol Jeyms I davrida Angliya parlamenti tomonidan “Yakov I statuti” nomi bilan qabul qilingan qabul qilingan “Act for Monopolies” – Monopoliyalar haqidagi qonundan boshlangan. Ushbu qonun eksklyuziv huquqlarni suiiste‘mol qilayotgan monopoliyalarni cheklashga va patent berishning yanada tartibga solinadigan tizimini o‘rnatishga qaratilgan edi. Keyinchalik bu tizim turli davlatlarga yoyilib, rivojlanib bordi hamda Parij konvensiyasi bilan umumiy tizimga asos solindi. Qo‘shma Shtatlardagi amaldagi patent tizimi 1952-yildagi Patent to‘g‘risidagi qonuniga asoslanadi. Ushbu qonunga asosiy e’tiroz Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (WIPO) tomonidan "birinchi ixtiro qilingan" (“first-to-invent”) prinsipi borasida bo‘lgan [4]. Boshqa barcha davlatlarda “birinchi topshirilgan” (“first-to-file”) tamoyili ishlab keladi. Yaponiya patent tizimi aynan AQSH hamda Fransiya patent qonunchiligining ayrim elementlari asosida 1885-yilda shakllantirilgan Patent monopoliyasi (Senbaitokkyo Joorei) qaroriga asoslangan. 1899-yilda Yaponiya 1883-yilgi Parij konvensiyasiga qo‘shilgach, nemis huquqidan andoza olib Patent qonuni, Dizayn qonuni va Tovar belgisi to‘g‘risidagi qonunni qabul qildi. Hozirda 1959-yildagi 121-sonli qonun amal qiladi.

**Patentga layoqatlilik shartlari.** Deyarli barcha mamlakatlarda sanoat mulki obyektlarining patentga layoqatlilik shartlari bir xil. Bular yangilik, ixtirolik darajasiga egalik va sanoatda fodalana olish imkoniyati kabilardir. Xususan, AQSh Patent Qonuni hamda uning Patent va tovar belgisi idorasi (USPTO) tomonidan belgilangan qoidalarga ko‘ra, AQShda patentga layoqatlilikning asosiy talablari yangilik – patent

uchun arizasi topshirilgan sanadan oldin dunyoning hech bir nuqtasida ma'lum bo'lmashligi, ixtirolik darajasi – texnologiyaning tegishli sohasida oddiy mahoratga ega bo'lgan odam uchun aniq bo'lmashligi, sanoatda fodalana olish imkoniyati – amaliy qo'llanishga ega bo'lishi va sanoatda ishlatilishi lozim [17, 101-103§]. Lekin, Yaponiya qonunchiligiga binoan, "ixtirolik darajasi" mezoni unchalik qat'iy emas. Milliy qonunchiligimizda esa uchala talabga javob beradigan ixtirolargina huquqiy muhofaza qilinishi belgilangan [18]. Biroq, istisno tariqasida ixtirolargina sanoatda ko'p miqdorda ishlab chiqarish imkoniga ega bo'lmasa ham, ixtiro deb tan olinishi mumkin [1, 125-b]. Bunga misol qilib, noyob turdagi va kam qo'llaniluvchi ixtirolarni keltirishimiz mumkin.

**Ixtiroga patent oluvchi.** Ixtiroga patent oluvchi masalasi ko'plab davlatlarda muammo sanalmaydi. Har qanday holatda ham ixtiroga birinchi bo'lib talabnoma bergan shaxs ixtiro uchun patent olishi barcha davlatlarda birdek amal qiladi va bu "first-to-file" tamoyili deb ataladi. Lekin AQShda, shu bilan birga Kanada hamda Filippinda uzoq vaqt davomida "birinchi ixtirochi" tamoyili amal qilib kelgan. Bu tamoyilga muvofiq patent birinchi ixtirochiga beriladi, ya'ni patent olingan ixtironing asl yaratuvchisi talabnoma bergan taqdirda avvalgi patentlar bekor bo'ladi hamda patent birinchi asl ixtirochiga qayta rasmiylashtiriladi. Hozirda barcha davlatlar "birinchi topshiruvchi" tamoyiliga o'tgan, shu jumladan AQSh Leahy-Smith America Invents Act (AIA) dan so'ng 2011-yilda rasman shu tamoyilni qabul qilgan.

Milliy patent tizimimizda "birinchi topshirgan" tamoyili amal qiladi. O'zbekiston Respublikasining "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonuniga (keyingi o'rinlarda – Patent qonuni) muvofiq sanoat mulki obyektlaridan birini bir nechta shaxs o'zlari mustaqil ravishda yaratgan bo'lsa, patent olish huquqi patent berish haqidagi talabnomani Agentlikka (bugungi kunda Adliya vazirligi) birinchi bo'lib topshirgan shaxsga tegishli bo'lishi belgilangan. Bundan ko'rinadiki, milliy patent tizimimiz haqiqiy ixtirochini izlashdan ko'ra, birinchi bo'lib talabnoma topshirgan shaxs manfaatlarini himoya qiladi.

Turli davlatlar patent tizimida protsessual jihatdan tafovutlar juda ham kam uchraydi. Chunki juda ko'plab davlatlar Parij konvensiyasi va boshqa xalqaro hujjatlar normalarini o'zining milliy qonunchiligiga implementatsiya qilgan. Xususan, maxfiylik tamoyilini olsak, har bir davlatning vakolatli patent idorasi tomonidan ularga kelib tushgan talabnomalar bo'yicha hisobotlar chop etiladi hamda bular birinchi bo'lib talabnoma topshirilganlikni isbotlashda va shunday talabnomalarni rad etishda asos bo'lib xizmat qiladi. Hozirgi kunda bu muddat barcha mamlakatlarda o'n sakkiz oy qilib belgilangan. Xususan, AQSh, Xitoy, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, O'zbekiston va yana boshqalarda xuddi shunday. Lekin talabnoma topshiruvchi patent

idorasidan talabnomani muddatidan ilgariroq chop qilish yoki kechiktirishni so‘rab ariza bilan murojaat qilishi mumkin. Kechiktirish muddati turli davlatda turlichadir. Yevropa Patent Konvensiyasining 93-(1) va 48-(1)-moddalariga ko‘ra, Yevropada patent talabnomasini topshirgan shaxs talabnomani chop etishni kechiktirishni so‘rab ariza berganda, chop etish 30 oygacha kechiktirilishi belgilangan.

Patent tizimi subyektlarida ham farqlar mavjud. Patent uchun talabnomalar tuzish hamda patentga da‘vogar jismoniy yoki yuridik shaxsning nomidan ish olib boruvchi subyektlar doirasi mavjud. Milliy qonunchiligimizga ko‘ra, bu ishlarni bajarish tegishli tarzda attestatsiyadan o‘tga hamda ruxsatnomaga ega patent vakillarining vakolatlariga tegishli. Xuddi, shuningdek Yaponiya, Hindiston va ko‘plab janubiy amerika mamlakatlarida patent vakillarisiz ish yuritish noqonuniy hisoblanadi. AQSh, Kanada, Buyuk Britaniya va Avstraliya kabi davlatlarda esa fuqarolar o‘zlari ham patent uchun talabnoma to‘ldirishlari mumkin. Masalan, AQSh da talabnoma beruvchilar patentga talabnomalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri AQSh Patent va tovar belgilari idorasiga (USPTO) patent vakili yoki agenti tomonidan vakillik qilmasdan topshirish imkoniyatiga ega. Biroq, ko‘plab talabgorlar patent tizimining murakkabligi tufayli patent vakili yoki agentlik xizmatini afzal ko‘radi.

**Ekspertiza so‘rovi.** Patent ekspertizasi talabnoma topshirishdan boshlanadigan AQSh va Yevropa qonunlaridan farqli o‘laroq, Yaponiyada ekspertiza faqatgina arizachi yoki uchinchi shaxslarning so‘rovi asosida boshlanadi. Patentga talabnoma berilgandan so‘ng, har qanday shaxs Komissarga ariza berilgan kundan boshlab uch yil ichida arizani ko‘rib chiqish to‘g‘risida yapon tilida so‘rov yuborishi lozim [12]. Bu muddat davomida patentga layoqatlilik ekspertizasi o‘tkazilmasa ham boshqa talabnomalarda keltirilgan sanoat mulki “yangi” emas deb rad etiladi.

Ba‘zi davlatlarda buning aksi o‘laroq patent ekspertizasini kechiktirish mumkin emas. Jumladan, AQShda patentga ariza topshirilgandan so‘ng, imtihon jarayoni Patent va tovar belgilari idorasi (USPTO) tomonidan boshlanadi. Ariza beruvchida imtihonni kechiktirish yoki keyinga qoldirishni talab qilish imkoniyati yo‘q. Yevropa Patent idorasi (EPO) ham imtihon jarayoni belgilangan vaqt jadvaliga amal qiladi va arizachilar imtihonni kechiktirishni talab qila olmaydi. Aksincha, ba‘zi mamlakatlar patent ekspertizasini belgilangan muddatdan avvalroq, tezroq amalga oshirish imkonini ham taklif qiladi. Buning uchun bir qancha dasturlar mavjud va har bir dastur qo‘shimcha xarajatlarni talab etadi. Bular quyidagi dasturlar:

1) Patent prokuraturasi avtomagistrali (PPH) dasturi. Bu dastur talabnoma beruvchilarga boshqa a‘zo mamlakatda tegishli talabnomadan so‘ng amalga oshirilgan ekspertiz natijalari asosida tezlashtirilgan ekspertizani taklif qiladi. Yaponiya, Kanada,

Janubiy Koreya, Avstraliya va boshqa ko‘plab mamlakatlar PPH dasturining o‘z versiyalarini amalga oshirdilar [13].

2) Green Channel (Yashil kanal) dasturi Xitoy, Janubiy Koreya va boshqa bir qator mamlakatlarda, ekologik foydali yoki toza texnologiyalar bilan bog‘liq ba’zi patent dasturlari uchun tezkor ekspertizani ta’minlashni ko‘zda tutadi [14]. Ushbu dasturlar ekologik jihatdan toza va uni ifloslanishdan himoya qilishga qaratilgan innovatsiyalarni rag‘batlantirishni maqsad qilgan.

3). Patent tezkor dasturlari Braziliya, Kanada, AQSh va Avstraliya kabi bir nechta mamlakatlarda taklif qilinadi. Bu talabnoma beruvchilardan muayyan haq evaziga patent talabnomalari uchun muddatidan oldin tezkor ekspertiza qilish imkonini beradi. Bu turli davlatlarda turlicha nomlanadi. AQShda bu Track One dasturi deb ataladi. Statistik malumotlarga ko‘ra, oxirgi paytda bu dastur juda ham ko‘p ishlatilmoqda [15].

4). Tezlashtirilgan ekspertiz dasturlari – Buyuk Britaniya va Singapur kabi mamlakatlarda ma’lum texnologiya sohalarida yoki ixtirolarning muayyan turlari uchun patentga talabnomalarni tekshirishni tezlashtiradigan tizimni joriy qilganlar.

Shuni ta’kidlash kerakki, ushbu dasturlarning aniq tafsilotlari, talablari, shartlari va mavjudligi mamlakatlar orasida farq qiladi. Ariza beruvchilar tezlashtirilgan imtixon dasturlari to‘g‘risida ma’lumotlarni har bir mamlakatdagi tegishli patent idoralari yoki intellektual mulk organlariga murojaat qilish orqali olishlari mumkin.

**Mualliflik haqi (Royalty).** Axborot-kommunikatsiya tarmoqlarning tez sur’atlarda rivojlanishi hamda ijtimoiy hayotga jadallik bilan kirib kelishi ijodkorlarni o‘z asarlariga bo‘lgan mutloq huquqlar muhofazasini yetarli darajada ta’minlash bo‘yicha zarur choralarni ko‘rishga undamoqda [5]. Mualliflik haqi, ya’ni ixtirochining qilgan ixtirosidan o‘zgaralar shartnoma asosida foydalangani uchun oladigan haq hisoblanadi. Mualliflik haqi asosan muallif hamda boshqa shaxslar o‘rtasidagi litsenziya shartnomasi asosida kelishuv va muzokaralar bilan belgilanadi. Bu amaliyot deyarli barcha mamlakatlarda mavjud. Lekin Yaponiyada biroz boshqacha amaliyot ham shakllangan. Yaponiyada patent idorasi tomonidan chop etiladigan talabnoma shu qadar aniq bo‘ladiki, uni hatto boshqa shaxslar ham foydalana oladi. Chop etilgan talabnoma asosida yasalgan texnika, texnologiyalardan foydalanganlik uchun patent olgan ixtirochi patent olgan kundan boshlab uning ixtirosidan foydalanayotganlardan “royalty”ni talab qilishi mumkin. “Royalty” patent berishdan oldin undirilishi mumkin emas. Bu amaliyot boshqa davlatlarda shakllanmagan hamda ko‘pincha tanid ostiga olinadi. Buning asosiy sababi patent olingunicha bu ixtiro jamiyat hayotida va sanoatda o‘z ahamiyatini yo‘qotishi mumkin. Bu holat ixtirochi uchun juda katta yo‘qitish bo‘lishi mumkin. Lekin buning ijobiy tomonlari ham mavjud. Ixtiro va boshqa

kashfiyotlar qanchalik tez sanoatlashtirilsa, davlatning iqtisodiy rivojlanishiga ham shu qadar tez hissa qo'shishi mumkin.

**Majburiy litsenziyalar.** Majburiy litsenziyalash tizimi hukumatning patent egalaridan ma'lum sharoitlarda o'zlarining patentlangan texnologiyalarini boshqalarga litsenziyalashni talab qilishini anglatadi. Buning ikkita asosiy sharti mavjud. Quyidagi ikki holatda patent egasi patentlangan texnologiyani litsenziyalashga majburlanadi:

1) Patent ixtirosi muayyan muddat davomida umuman ishlatilmagan yoki yetarli darajada ishlab chiqarishda foydalanilmagan hamda undan doimiy foydalanishga istak bildirgan shaxslar bo'lsa;

2) Agar patentlangan ixtirodan jamoat manfaatlari uchun juda ham zarur bo'lsa, majburiy litsenziyalash talab etiladi.

Majburiy litsenziyalash deyarli barcha mamlakatlarda mavjud. "Pandemiya holatlarida mamlakatlar dori vositalari va patent olingan ixtirolarga nisbatan huquq egasidan ruxsat olmagan holda majburiy litsenziya berish tamoyilini qo'llaydi" [6]. Yapon qonunchiligida ko'ra, agar patentlangan ixtiro Yaponiyada uch yil yoki undan ko'proq vaqt davomida yetarlicha va doimiy ravishda ishlangan bo'lsa, patentlangan ixtironi ishlatishni niyat qilgan shaxs patent oluvchidan (yoki eksklyuziv litsenziatdan) shaxsga eksklyuziv bo'lmagan litsenziya (nomutlaq litsenziya) berish to'g'risidagi bitim bo'yicha munozaralar o'tkazishni so'rashi mumkin, ammo, patentlangan ixtiro uchun patentga talabnoma berilgan kundan boshlab to'rt yil o'tmagan bo'lsa, majburiy litsenziyalashni talab qilish mumkin emas [20]. Agar patent egasi litsenziya berishdan yoki muzokaradan bosh tortsa, manfaatdor tomon Yaponiya Patent idorasiga yoki arbitrajga murojaat qilishi mumkin.

2001-yilda Doha shahrida bo'lib o'tgan JSTning vazirlar konferensiyasida «TRIPS bitimi va jamiyat salomatligi bo'yicha Doha deklaratsiyasi» qabul qilingan. Aynan shu deklaratsiya dori vositalaridan foydalanishga imkoniyat yaratish bo'yicha «TRIPS bitimining moslashuvchan qoidalari»ning amalda bo'lishiga sharoit yaratgan. Deklaratsiya qoidalarida fors-major holatlari qatori epidemiya sharoitida daromadi o'rta va past bo'lgan mamlakatlarga zarur tibbiyot mahsulotlarini majburiy litsenziya asosida berish qayd etilgan [8].

Milliy qonunchiligimizda ham patentlangan sanoat mulkidan ro'yxatgan olingan kundan boshlab uch yil mobaynida yetarli yoki umuman foydalanilmagan taqdirda undan foydalanishga tayyor shaxs sudga nomutlaq litsenziya berishni so'rab murojaat qilishi mumkinligi belgilangan (Patent qonuni 11-modda).

**Muddatdagi farqlar.** Berilgan patentning amal qilish muddatida ham davlatlar doirasida farqlar mavjud. Masalan, Milliy patent tizimimizga ko'ra, ixtirolar yigirma yil, sanoat namunalari o'n yil, foydali modellar besh yil davomida patent bilan huquqiy

muhofaza qilinadi (Patent qonuni 5-modda). AQShda patent patentga ariza berilgan kundan boshlab ixtiro uchun yigirma yil, sanoat namunalari uchun esa patent berilgan kundan boshlab o'n to'rt yil muddatga beriladi [19, 154§-173§]. Ko'rishimiz mumkinki, patentning amal qilish muddati patentga ariza topshirilgan vaqtdan yoki patent berilgan vaqtdan boshlab o'ta boshlaydi. Patentga ariza berilgach, o'rtacha 2-4 yilda patent olinishini hisobga olsak, patent egalari uchun patent olingan kundan boshlab muddatni hisoblash afzalroq bo'ladi.

Yaponiyada ham patentning amal qilish muddati ariza topshirilgan paytdan boshlab amal qila boshlaydi. Patent talabnoma berilgan paytdan boshlab yigirma yil davomida amal qiladi. Foydali modellar uchun patent o'n yillik himoya, sanoat namunasi uchun esa yigirma besh yillik himoya taqdim etiladi [20,21,22, Article 67, 15, 21]. Patentning amal qilish muddati davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy holatidan kelib chiqib hukumatlari tomonidan belgilanadi. Qaysidir davlat uchun ixtirolarning o'rni yuqori bo'lsa, boshqa davlatda ahvol sanoat namunalari ko'proq himoya qilishni taqozo etadi. Muddat qancha bo'lmasin, patentlashdan asosiy maqsad sanoat mulki obyektlarini himoya qilish orqali ularning yaratilishini rag'blantirish hamda iqtisodiyotni rivojlantirish bo'lib qolaveradi.

**Patent idoralariga davlatning ta'siri.** Amerika Qo'shma Shtatlarida AQSh Patent idorasi Savdo Departamentining agentligi bo'lib, idoraning eng yuqori mansabdor shaxsi bo'lgan Komissar Fan va texnologiya bo'yicha kotib yordamchisi orqali Savdo kotibiga hisobot beradi. Ushbu zanjirdagi shaxslar, shuningdek, Patentlar bo'yicha to'rtta komissar yordamchilari Prezident tomonidan Senatning maslahati va roziligi bilan tayinlanadi va uning xohishiga ko'ra xizmat qiladi. Xuddi shunday, Yaponiyada Yaponiya Patent idorasi Xalqaro Savdo va Sanoat Vazirligining (MITI) agentligi hisoblanadi. Yaponiya Patent idorasining bosh direktori o'rtacha har ikki yilda o'zgaradi va odatda MITIdan keladi. Xuddi shuningdek, patentlash faoliyatini deyarli barcha davlatlarda, shuningdek, O'zbekistonda ham davlat organi – Adliya vazirligi amalga oshiradi (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-89-son farmonga muvofiq). Boshqa davlatlardan farqi bizning mamlakatda maxsus organ tugatilib, barcha vakolatlar Adliya vazirligiga berilgan.

Bundan tashqari, huquq tizimida ham ayrim farqlar mavjud. Qo'shma Shtatlar, Buyuk Britaniya, Kanada, Avstraliya, Hindiston kabi davlatlarda umumiy huquq tizimi amal qiladi. Patent tizimi maxsus qonunlar va statutlar asosida shakllantirilgan bo'lsa ham, sud presedentlarining patent tizimiga ta'siri bor. Amerika Qo'shma Shtatlarida texnologiya nou-xau qonunchiligi asosan sudyalar tomonidan ishlab chiqilgan va uni faqat ko'plab sud qarorlarini tahliliy o'qish orqali aniqlash mumkin. AQSh federal tizimi ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu sohadagi huquqiy muammolar odatda shtat



qonunlari bilan tartibga solinadi, bu barcha ellikta shtat uchun bir xil emas va ba'zan shtat sudlari, ba'zan esa federal sudlar tomonidan shtat qonunchiligini qo'llagan holda hal qilinadi. Bulardan farqli o'laroq Yaponiya, Xitoy, Koreya hamda bizning huquq tizimimiz ham roman-german huquq tizimiga asoslangani bois patent tizimi haqidagi har bir qoida avvaldan qat'iy belgilangan.

**Til bo'yicha farqlar.** AQSh, Xitoy, Yaponiya hamda boshqa davlatlar patent talabnomalarini davlat tilida topshirishni talab qiladi. Biroq, bu chet ellik tadbirkorlar uchun kamsitish sifatida qabul qilinishi mumkin emas. Ayniqsa, Xitoyda xorijlik tadbirkorlar xitoy tili qiyin bo'lgani uchun bundan ko'p nolishadi va ko'pincha patent olishda mahalliy patent vakillari xizmatidan foydalanishadi.

### **Patent sohasidagi nizolarni ko'rish.**

Olimlarning tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlagan holda intellektual mulk yaratuvchilari, ya'ni ixtirochilarning huquq va manfaatlari qonun bilan himoya qilinishini unutmazlik lozim [9]. Patent tizimining yana bir o'ziga xos jihati undagi nizolarni hal qilishda sudlarning ishtiroki hisoblanadi. Yuqorida aytganimizdek, AQSh da bu bilan bog'liq nizolar fuqarolik ishlari bo'yicha shtat sudlari tomonidan, Patent va savdo belgisi idorasi (USPTO) qarorlari bo'yicha esa federal sudlar tomonidan ko'rib chiqiladi.

Milliy qonunchiligimizga ko'ra, patent bo'yicha nizolar, asosan, fuqarolik sudlari tomonidan, maxsus organning qarori yuzasidan vujudga kelgan nizolar esa ma'muriy sudlar tomonidan ko'rib chiqiladi.

Yaponiyada esa nizolarni hal qilishda boshqacha amaliyot shakllangan. Aynan intellektual mulk sohasidagi nizolarni hal qilish uchun maxsus sud tizimi tashkil etilgan. Bu Intellektual mulk oliy sudi (IP High Court) hamda uning hududiy bo'limlaridir. Bunday sudlar tashkil etilgunicha intellektual mulk bilan bog'liq nizolar Yaponiya Oliy sudi tarkibidagi umumiy fuqarolik apellyatsiya ishlari bilan bir qatorda ko'rib chiqish uchun tashkil etilgan beshinchi maxsus bo'lim tomonidan hal qilingan (1950-yillar). Ushbu bo'lim yillar davomida takomillashib bordi hamda nihoyat 2004-yil iyun oyida Intellektual mulk Oliy sudini tashkil etish to'g'risidagi qonun qabul qilindi va alohida maxsus ixtisoslashgan sud tizimi vujudga keldi. [16]

### **XULOSA**

Turli davlatlarda patent tizimi o'sha davlatlarning milliy qonunchiligi asosida shakllantirilgan. Lekin ularning asosiy qoidalari deyarli bir xil. Bunga 1883-yilgi Parij Konvensiyasi va boshqa xalqaro hujjatlar normalarini milliy qonunchilikka gormonizatsiya va unifikatsiya qilish orqali bir xillashtirgani sabab bo'lgan. Turli davlatlarda patent tizimi deyarli bir xilda tashkil etilgan bo'lsa ham lekin uning samaradorligi, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ta'siri turlichadir. Bunga turli xil

omillar sabab bo'lishi mumkin, jumladan, ijtimoiy, geologik joylashuv, rivojlangan davlatlarga yaqinlik, turli xalqaro bitimlarga a'zolik, madaniy va boshqa omillar. Biz bu maqolada faqatgina huquqiy omillar nuqtai nazardan ko'rib chiqdik. Deyarli barcha mamlakatlar patent tizimi unchalik katta ahamiyatga ega bo'lmagan jihatlar bilangina farq qiladi. Demak, patent tizimining samaradorligiga huquqiy omilning ta'siri unchalik katta emas. Huquqni qo'llash amaliyoti esa bir muncha ta'sir etishi mumkin. Chunki biz faqatgina huquqning qonunchilikda birligilinish darajasini tahlil qilish bilangina cheklandik.

Intellektual mulk sohasida samarali huquqiy muhofaza va himoya tizimini yaratmasdan turib, mamlakatning innovatsion taraqqiyotini ta'minlab bo'lmaydi [3]. Patent tizimining samaradorligini oshirish yuqorida ta'kidlaganimizdek, turli omillarga bog'liq. Bizning bugungi tahlillarimizdan ko'rinib turibdiki, huquqiy jihatdan milliy patent tizimini tashkil etgan qonunchilik bazasi yetarli darajada shakllantirilgan. Bizningcha, endi ushbu tizim boshqa davlatlardagi kabi samarali ishlashi uchun uning amaliy jihatlarini ko'rib chiqish lozim.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. A.Z.Djumaxodjayev. (2001). *Patentshunoslik: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik*. Mehnat.
2. Abdugopirovich Y. A. (2021). Types Of Legal Protection Of A Trademark (Service Mark) In Foreign Countries: The Example Of The Madrid System. *Turkish Journal of Computer and Mathematics Education (TURCOMAT)*. – T. 12. – №. 4. – С. 1068-1073.
3. Юлдашов А.(2020). Интеллектуал мулк бўйича миллий стратегияларнинг аҳамияти ва бутунжаҳон интеллектуал мулк ташкилотининг бу борада тутган ўрни. *Юрист ахборотномаси*. – Т. 1. – №. 2. – С. 53-59.
4. Curesky, Karen M. (1989). International patent harmonization through W.I.P.O.: An analysis of the U.S. proposal to adopt a "first-to-file" patent system. *Law and Policy in International Business*. 21(2): 289-308
5. ЮЛДАШОВ А. (2022). Ўзбекистон Республикасининг интеллектуал мулк, алоқа ва ахборот соҳасидаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда муаллифлик ҳуқуқини муҳофаза қилишга доир нормаларни такомиллаштириш масалалари. *Юрист ахборотномаси*. – Т. 2. – №. 5. – С. 58-64.
6. YULDASHOV A. (2023). Intellectual property law policy in Uzbekistan. *Global Scientific Review*. – Т. 12. – С. 80-85.

7. Юлдашов А. (2021). Географик кўрсаткич тушунчаси ва иқтисодий ва маданий мустақамлашда унинг тутган ўрни. *Юрист ахборотномаси*. – Т. 2. – №. 1. – С. 249-257.
8. Юлдашов А. А. (2021). Необходимость участия Республики Узбекистан в международных рейтингах и индексах в области интеллектуальной собственности. *Электронный инновационный вестник*. – №. 1. – С. 18-20.
9. Юлдашов, А. А. (2021). Роль организаций, управляющих имущественными правами на коллективной основе, в обеспечении защиты авторских прав: опыт Узбекистана и мира / А. А. Юлдашов // Цифровая среда и политика университетов в сфере интеллектуальной собственности : Сборник статей Международной научно-практической конференции, Москва, 09 июня 2021 года / Образовательное частное учреждение высшего образования «Институт международного права и экономики имени А.С. Грибоедова» (ИМПЭ им. А.С. Грибоедова); Кафедра интеллектуальной собственности и гражданско-правовых дисциплин. – Москва: Издательская группа "Юрист". – С. 198-205. – EDN VFPFTV.
10. USPTO. (2022). *Intellectual property and the U.S. economy: Third edition*. United States Patent and Trademark Office, US. <https://www.uspto.gov/sites/default/files/documents/uspto-ip-us-economy-third-edition.pdf>
11. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi. (2019). *Yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarish*. Maqola. [https://stat.uz/uploads/docs/yalpi\\_ichki\\_mahsulot\\_dekabr\\_uz.pdf](https://stat.uz/uploads/docs/yalpi_ichki_mahsulot_dekabr_uz.pdf)
12. WIPO. (2023). *PCT Applicant's Guide – National Phase – National Chapter – JP*. World Intellectual Property Organization. Article. <https://www.wipo.int/export/sites/www/pct/guide/en/gdvol2/annexes/jp.pdf>
13. WIPO. (2023). *PCT-Patent Prosecution Highway Program (PCT-PPH and Global PPH)*. World Intellectual Property Organization. Article. [https://www.wipo.int/pct/en/filing/pct\\_pph.html](https://www.wipo.int/pct/en/filing/pct_pph.html)
14. Imogen Percival and Robin Newman (2022). *Intellectual Property Office Green Channel accelerates environment-friendly patents*. Government Science & Engineering. <https://governmentscienceandengineering.blog.gov.uk/2022/07/18/intellectual-property-office-green-channel-accelerates-environment-friendly-patents/>
15. USPTO. (2023). *USPTO's Prioritized Patent Examination Program*. United States Patent and Trademark Office, US.

<https://www.uspto.gov/patents/initiatives/usptos-prioritized-patent-examination-program>

16. WIPO. (2023). *An International Guide to Patent Case Management for Judges*. World Intellectual Property Organization. Article. <https://www.wipo.int/patent-judicial-guide/en/full-guide/japan/7.1.4>
17. Government Publishing Office (2023). *United States Code Title 35 – Patents*. United States Patent and Trademark Office, US. [https://www.uspto.gov/web/offices/pac/mpep/consolidated\\_laws.pdf](https://www.uspto.gov/web/offices/pac/mpep/consolidated_laws.pdf)
18. Adliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi. (2002). **“Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”gi Qonun**. <https://lex.uz/docs/-76671>
19. Government Publishing Office. (2023). *35 U.S.C. United States Code, 2011 Edition. Title 35 – PATENTS*. <https://www.govinfo.gov/content/pkg/USCODE-2011-title35/html/USCODE-2011-title35.htm>
20. Ministry of Justice, Japan. (2023). *Japan Patent Act. Act No. 121 of April 13, 1959*. [https://www.japaneselawtranslation.go.jp/en/laws/view/4097#je\\_ch5sc1at12](https://www.japaneselawtranslation.go.jp/en/laws/view/4097#je_ch5sc1at12)
21. Ministry of Justice, Japan. (2023). *Utility Model Act Act No. 123 of April 13, 1959*. <https://www.japaneselawtranslation.go.jp/en/laws/view/4259>
22. Ministry of Justice, Japan. (2023). *Design Act. Act No. 125 of April 13, 1959*. <https://www.japaneselawtranslation.go.jp/en/laws/view/4260>